

Mo'minmirzo Xolmo'minov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrası
dotsenti, mustaqil tadqiqotchi
E-mail: mominmirzoxolmominov@gmail.com*

**MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA MABLAG' JALB ETISH VA
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH:
XORIJ VA MAHALLIY TAJRIBA GIBRID**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida ijtimoiy loyihalarga mablag' jalb etish masalalari va xorij tajribasi ko'rib chiqilgan. Bu sohada e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan muhim jihatlar va xususiyatlar o'rganilgan. Undan tashqari madaniyat markazlari uchun homiylarni jalb etishda taklif va yechimlar ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** madaniyat va san'at, "fandreyzing", mablag', loyiha, sarmoya, hamkor, aloqa, samaradorlik, muammolar.*

**ATTRACTING FUNDING AND IMPLEMENTING PUBLIC-PRIVATE
PARTNERSHIP PROJECTS IN THE FIELD OF CULTURE AND ART:
A HYBRID OF FOREIGN AND LOCAL EXPERIENCE**

***Abstract.** This article examines the issues of attracting funding to social projects aimed at developing the activities of cultural and art institutions, as well as explores international experience in this field. Key aspects and specific features that require particular attention in this sphere are analyzed. In addition, proposals and solutions for engaging sponsors for cultural centers are presented.*

***Keywords:** culture and art, fundraising, funding, project, investment, partner, communication, efficiency, challenges.*

Hozirgi kunda madaniyat markazlari faoliyati, umuman, madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madaniyatimizni keng targ'ib qilish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xalqimizni

madaniyat va san'atimizga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish va to'laqonli jalb etish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bugun zamonaviy jamiyatimizda yangicha madaniyat va san'at muassasalari, xususan, madaniyat markazlari faolligi talab etilmoqda. So'nggi yillarda madaniyat sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Madaniyat markazlariga pul mablag'larini, ya'ni mahalliy loyihalarni amalga oshirish va bugungi kun talablariga javob beruvchi madaniyat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tashqi investorlarni jalb etish dunyoning rivojlangan mamlakatlarning madaniyat va san'at sohasida keng qo'llanilgan va ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan soha, ochiqroq aytadigan bo'lsam, xayriya to'plash yoki homiylarni jalb etish (ingliz tilida "fundraising" deb ataladi) hisoblanadi.

Madaniyat markazlarining auditoriyasini ko'paytirish, ular uchun foydali va manfaatli takliflarni bera olish, qisqa qilib aytganda, talabga javob bera oladigan madaniy xizmat ko'rsata olish yoki namuna ko'rsatish uchun istiqbolli reja va loyihalar madaniyat va san'at sohasiga homiylarni jalb etish uchun qurol vazifasini bajaradi. Madaniyat markazlariga homiylarni jalb etish – bu jismoniy shaxslar, xayriya jamg'armalari yoki davlat idoralarini jalb etish orqali ixtiyoriy moliyaviy mablag'larni izlash va yig'ish jarayoni.

Buyuk Britaniya madaniyat va san'at sohasiga nazar tashlar ekanmiz, xususi va davlat qaramog'ida bo'lgan ikki shakldagi muassasalar faoliyat yuritadi. Ahamiyatlisi shundaki, har ikki turdagi madaniyat va san'at muassasalari homiylik va xayriya mablag'lari bilan o'zlarini o'zlari moliyalashtiradi, ya'ni "fandreyzing" sohasi allaqochon yo'lga qo'yilgan.

Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Londondagi deyarli barcha davlat tasarrufidagi madaniyat markazlari, teatrlar, sirk, konsert zallari, madaniyat saroylari va muzeylarni moliyalashtirish mablag'larini atiga 30 foizi davlat tomonidan qoplanadi. Taajubki, bizda barcha madaniyat va san'at muassasalarimiz davlat qarmog'ida, barcha imkoniyatlarni davlat qilib bermoqda. Bugun tilimizda "zamonaviy", "zamon talabi", "yangicha hayot tarzi" kabi bir qancha so'z va iboralar muqim o'rnashib bermoqda. Ammo tilimizda bot-bot

takrorlangan bu soʻzlarni amaldagi ishlarimizda qoʻllamas ekanmiz soʻz soʻzligicha, hayotimiz esa muallaq qoladi. Rivojlangan davlatlarda madaniyat muassasalari uchun yetarlicha daromad olib kelayotgan “fandreyzing” sohasi madaniyat markazlarimizda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun katta imkoniyatdir. Shuning uchun ham ayni paytda bu sohani keng tadbqiq etish maqsadida jahon tajribasidan oʻrnak olgan holda anchagina samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti va Londondagi Goldsmit universiteti hamkorligida 2022-yilning 27-iyunidan 1-iyuliga qadar “Madaniyat va sanʼat sohasida ijtimoiy loyihalarga mablagʻ yigʻishda xorij tajribasi ” nomli seminar-trening boʻlib oʻtgan edi. Ushbu seminar-treningni asosiy maqsadi ham Oʻzbekistonda endi quloch yoyayotgan “fandreyzing” sohasining ahamiyati va foydali xususiyatlarini madaniyat va sanʼat xodimlariga tushuntirish edi. 5 kun davom etgan seminarda respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan madaniyat markazlarining rahbarlari va talabalar ishtirok etishdi. Trening spikeri Goldsmit universiteti, London ijodiy instituti va madaniy tadbirkorlik direktori Gerald Lidstone: “Fandreyzing – madaniyat markazlarini rivojlantirishda ish beradigan usul”, – deya taʼkidlab oʻtdi. Aslida ham shunday.

Seminarda “fandreyzing”ning 5 ta bosqichi va amalga oshirish mexanizmlari toʻgʻrisida bilim va koʻnikmalar, jahon tajribalari bilan oʻrtoqlashildi:

- 1-bosqich: oʻz tashkilotingizni baholash;
- 2-bosqich: homiy uchun takliflar paketini tayyorlash;
- 3-bosqich: homiylarni qidirish (munosib homiy tanlay olish);
- 4-bosqich: uzoq muddatli va doimiy aloqa oʻrnatish [1].

Ushbu bosqichlardan muvaffaqiyatli oʻtish uchun, avvalo, niyat toʻgʻri boʻlishi va tashkilotning maqsad va vazifalari aniq boʻlishi zarur, deb oʻylayman. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek, “Har bir rahbar oʻz ish uslubini oʻzgartirib, oddiy odamlarning imkoniyati va koʻnikmalarini inobatga olib, amaliy loyihalar qilinsagina tezroq natija boʻladi”. Amaliyotlar shuni koʻrsatadiki,

o'z faoliyatimiz davomida loyihaviy yondashuvlardan foydalanmas ekanmiz, har qanday g'oya oddiygina rejalashtirish bo'lib qolaveradi.

Shu sababdan ham, trening davomida amaliy topshiriq maqsadida aynan shu muammo uchun yechimlar izlandi. Ishtirokchilar kichik guruhlarda muammoni muhokama qilishni boshlashdi, tajribalar bilan o'rtoqlashishdi, turli yechimlar taklif qilishdi va janob Gerald Lidstone har jamoa uchun seminar yakunida homiylarni jalb etish va ulardan mablag' undirish yo'llarini oddiy va jahon tajribasida sinalgan usullar bilan tushuntirdilar. Seminarning har bir kunida "Biz nima bilan shug'ullanamiz?", "Kim uchun qilyapmiz?", "Qanday qilib bajaramiz?", "Nima uchun bajaramiz?" kabi savollarga javob topildi. London tajribasiga e'tibor qaratar ekanmiz, bu soha har bir tashkilot uchun zarur tarmoq sifatida qaratilar ekan.

Bundan tashqari bu soha uchun iqtisodiyotdan xabardor, mahalliy va xalqaro aloqalar o'rnatish qobiliyatiga ega shaxslar tanlanar ekan. "Hamkorlikning ishonchli va samarali bo'lishi uchun samimiylik va to'g'ri so'zlik oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimizning yagona ish beradigan vositasidir", – deya ta'kidladi, trening spikeri. Haqiqatdan ham, Navoiy asarlarida shunday deyiladi: "Mol-u martaba garchi jonni parvarish qilsa ham, So'z kamoli hammasidan yuqoriroqdir". Qanchalik martabamiz yuqori bo'lmasin, nutqiy qobiliyatimiz yaxshi rivojlanmagan bo'lmasa, samarali natijaga erisha olmaymiz. Quyida "fandreyzing" sohasining talablariga javob bera oladigan taklif loyihani havola etmoqchimiz.

Taklif. Madaniyat markazlarida har doim tashkil etiladigan tadbirlardan farqli ravishda zamonaviy-ommabop shou-konsert dasturlarini tashkillashtirish va pullik xizmatlarni joriy etishdan iborat. Homiylar tomonidan berilgan mablag' tadbirni namoyish etish uchun zarur zamonaviy texnikalar bazasi bilan boyitish, liboslarni yangilash va madaniyat markazini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash uchun ishlatish reja qilingan. Bu loyiha uchun asosiy homiylar fermerlar hisoblanadi. Yurtimizda qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarishda klasterga alohida e'tibor berilgani uchun ham har bir tumanda bir qancha fermerlar va klasterla faoliyat yuritadi.

Amalga oshirish mexanizmi. Zamonaviy texnika va liboslardan foydalanib, auditoriyamizning xohishlaridan kelib chiqib, shou-konsert dasturini tayyorlaymiz. Xizmatlarimizning iste'molchisi, ya'ni auditoriyasi fermer xo'jaliklarida paxta terish mavsumida mehnat qiluvchi 30 yoshda 50 yoshgacha bo'lgan aholi. Tashkil etgan konsert dasturlarimizni yurtimizda paxta terish mavsumi boshlangan paytda namoyish etish rejalashtiriladi. Ko'rsatadigan xizmatlarimiz mavsumiy bo'ladi, ya'ni, har yili ikki oy (sentyabr, oktyabr) da namoyish etiladi.

Homiy uchun tegadigan manfaatlar. Tayyorlangan konsertlar orqali fermer qilayotgan ishlarni reklama qilamiz (uning ishlari to'g'risida sahna asarlari va qo'shiqlar qilinadi). Ular shu orqali viloyatda va respublikada eng namunali fermer nomini ham olishi mumkin. Fermerlar o'rtasidagi raqobatda xodimlarini madaniy hordiq chiqarishi va ularning ish samaradorligini oshirishda o'z hissalarini qo'shayotganligi uchun tahsinga sazovor bo'ladi. Taklifni amalga oshirishda fermer uchun foydali bo'ladigan yana bir jihat shundaki, fermerlar yerga bug'doydan so'ng ikkinchi ekin sifatida qovun va tarvuz hamda boshqa foliz ekinlari ekishadi. Undan tashqari ko'plab fermer xo'jaliklarining bog'lari mavjud. Madaniyat markazida "Karving san'ati" zamonaviy to'garagi tashkil etiladi va ularning mahsulotlari reklama qilinadi.

Kutilayotgan natija. Birgina loyihani o'z vaqtida bir nechta fermerlar uchun taklif qilish orqali madaniyat markazlariga budjetdan tashqari pul mablag'lari jalb etiladi va aholini, ayniqsa, yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va madaniyat markazlarini byudjetdan tashqari mablag'larini ko'paytirish maqsadida, mahalliy byudjet mablag'lari, yosh tadbirkorlarini jalb etgan hoda zamonaviy ovoz yozish, foto va video studiyalarini, "Karaoke", "Book cafe", "Aerobika" to'garagini tashkil etiladi. Madaniyat va san'at muassasalariga yangi hamkor va homiylarni jalb etish bugungi kun uchun dolzarb masala. Bu soha xodimlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. "Har bir vazifada juda katta ezgulik va ulug' maqsadlar mujassam" – deya ta'kidlagan siyosiy fanlar nomzodi, professor Azamat Haydarov [2].

Bu kabi seminar treninglarni doimiy ravishda o'tkazib borish, bugungi kun ish tajribalarining zamonaviy ko'rinishlarini talqin qilish va erishilgan natijalarni amaliyotga to'la-to'kis tadbiq qilish madaniyat va san'at sohasi vakillarining asosiy vazifalaridan biridir desak, mubolag'a bo'lmaydi. Yangi O'zbekistonda yangi marralarni zabt etish, albatta, katta mas'uliyat, mustahkam bilim va tajriba talab etadi. Shuningdek, hayotga chiroyli ko'zlar bilan ko'ra olish hamda yangiliklar sari intilish madaniyat va san'at sohasida yangiliklar yaratish uchun zamin bo'la oladi. O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirish bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Bunga mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda belgilangan Davlat xususiy sheriklik tamoyillari va ustuvor vazifalar asos sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblangan davlat-xususiy sheriklik sohasini boshqarish uchun kadrlar tayyorlash, ularni qayta o'qitish va malakasini oshirish o'ta dolzarb tashkiliy, iqtisodiy va ta'lim-tarbiya ahamiyatiga ega vazifalardan hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, davlat-xususiy sheriklik sohasi uchun kadrlar tayyorlash o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu jarayonda ishtirokchilar yuqori bilim, ko'nikma va tajribaga ega mutaxassislardan iborat bo'lishi lozim [3].

Davlat-xususiy sheriklik sohasi mamlakatda yosh va ayni paytda istiqbolli sohalaridan hisoblanadi. U davlat va xususiy sektor – tadbirkorlik subyektlari hamkorligida ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilma sohalarida amalga oshirilgan loyihalar, ishlab chiqariladigan tovarlar va ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlari va sifatining oshishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishida muhim o'rin tutadi. Buni sohani yaxshi yo'lga qo'ygan Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Germaniya, Bangladesh kabi davlatlar misolida ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda lug'atimizda davlat-xususiy sheriklik degan ibora paydo bo'ldi. Mamlakatimizda Davlat-xususiy sheriklik loyihalar markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda madaniyat va san'at sohasini ham chetda qoldirmadi. Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san'at muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilayotganligi meni hayratga solmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat va san'at muassasalari binolarini qurish va ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi ishlar talab darajasida emasligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va ularning moddiy-texnik ahvolini mustahkamlash, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart - sharoitlar yaratish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3892-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyulda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli va 2021-yil 20-yanvarda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli qarorlari qabul qilindi. Shu bilan birgalikda yana O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-36-sonli va 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlarida madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Sohaga davlat-xususiy sheriklikni kirib kelishi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

Shu kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari asosida davlat-xususiy sheriklikka beriladigan 229 ta madaniyat obyektining ro'yxati tasdiqlangan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyul "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli qarori bilan 57 ta madaniyat objekti, 2021-yil 20-yanvar "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida beriladigan davlat mulki obyektlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-sonli qarori bilan 172 ta madaniyat objekti tasdiqlangan.

Savol tug'iladi madaniyat obyektlarini qanday qilib davlat xususiy-sheriklikka olish mumkin? Bu bo'yicha biron mezon yoki nizom tasdiqlanganmi? Agar tasdiqlangan bo'lsa bu qanday amalga oshiriladi? Bu savollarning barchasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyul "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 570-sonli qarorida javob topamiz. Mazkur qarorda "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun alohida ochiladigan shaxsiy g'azna hisobvarag'i mablag'larini jamlash va undan foydalanish tartibi to'g'risida Nizom", "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik shartlari asosida faoliyat yuritadigan madaniyat va san'at nodavlat muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'laridan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risida Nizom" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi qonunchilik shartlari asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat madaniyat va san'at muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish va to'lash Sxemasi" tasdiqlangan. Madaniyat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida tasdiqlangan davlat xususiy-sheriklikka beriladigan madaniyat obyektlari to'g'risidagi loyihalarni doimiy ravishda www.madaniyat.uz rasmiy sayti orqali e'lon qilib boradi. Tadbirkorlar shu asosda loyiha tendrida ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda madaniyat markazlari faoliyatini tubdan isloh qilish jarayonlarida sohani moliyalashtirishning yangicha tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qancha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Chunki, bugungi bozor sharoiti madaniy-ma'rifiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlash orqali, uning taraqqiyoti bardavom bo'lishini ta'minlovchi yagona omil ekanligini isbotlaydi. Hozirgi global iqtisodiyot madaniyat va san'at sohasiga ham ta'sir ko'rsatibgina qolmay, sohani moliyalashtirishning asosiy omillarini har tomonlama integratsiyalashni talab etadi.

Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari: O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari; 2019-yil 30-martdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 264-son qarorining birinchi ilovasi bilan tasdiqlangan Madaniyat markazlari to'g'risida Namunaviy nizomda belgilangan asosiy vazifalardan kelib chiqib, pullik tushum asosida tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, to'garaklar, turli xizmatlar va boshqalar hisobidan olinadigan daromadlar; yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari; qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar [4].

Markazlarda tashkil etilgan pulli to'garaklardan tushadigan mablag'larning 50 foizi ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, qolgan 50 foizi to'garak rahbarlarining ish haqiga hamda ularni rag'batlantirishga sarflanadi. Markazlarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisob-kitobi va hisoboti tuman (shahar) Madaniyat bo'limlarining markaziy buxgalteriyasi tomonidan byudjet muassasalari uchun belgilangan tartibda yuritiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'ysunuvidagi Markazlarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisob-kitobi va hisoboti o'zining buxgalteriyasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo, madaniyat markazlari faoliyatidagi asosiy moliyalashtirish omillari ko'pincha markaz buxgalteriyasida shakllanadi.

Madaniyat markazlari faoliyatini to'g'ri moliyalashtirining asosiy omili sohada xususiy sektorining ulishini oshirish va xususiy sektor vakillariga zarur

shart-sharoit yaratib berishdan iborat. O'z-o'zini moliyalashtirish muammosi iqtisodiyot nazariyasi uchun azaliy hisoblanib, lekin turli davrlarda, har xil mamlakatlar uchun unga turli darajada e'tibor qaratilishi xos. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bizning respublikada ham iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida, o'z-o'zini moliyalashtirish masalalari hozirgacha olimlar va amaliyotchilarning asosiy diqqat-e'tibori obyektiga aylangani yo'q. O'zbekiston Milliy iqtisodiyoti asosan rivojlanishning bozor shakllariga o'tkazilgan hozirgi sharoitda, fikrimizcha, mulkchilikning barcha shakllardagi korxonalarda o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish zaruriyatga aylanib qoladi [5].

Bu zaruriyatni to'g'ri tahlil qilish, moliya resurslari balansini ishlab chiqish va boshqarishda madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirish omilining yana bir katta muammosi bu – iqtisodchi kadrlar hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Istanbul madaniyat institutida aynan, madaniyat va san'at sohasi uchun "Madaniyat iqtisodiyoti" yo'nalishi tashkil etilgan bo'lib, unda madaniyat va san'at sohasi iqtisodchisi mutaxassisi tayyorlanadi. Taklif sifatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham "Madaniyat iqtisodiyoti" yo'nalishini tashkil etish kerak deb o'ylaymiz. Madaniyat va san'at muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodchi buxgalterlar ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini yaxshi tushunishi va madaniyat markazlarini moliyalashtirishning asosiy omillarini chuqur bilishi zarur. Shundagina sohani moliyalashtirish jarayonlari oson va samarali kechadi. Madaniyat markazlarini moliyalashtirishda xalqaro tajribalardan foydalanishimiz va amaliyotga tadbiiq etishimiz kerak. Chunki bugungi madaniy xizmat bozori raqobotni va yaxshi iqtisodiy tahlilni talab etadi. Dastavval, madaniyat markazlarining o'zini-o'zi moliyalashtirish bo'yicha mavjud qaror va farmonlar, buyruqlar va nazariy-amaliy materiyallarni umumlashtirib, tahlil qilib istiqbolda moliyalashtirish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan madaniyat markazlarining iqtisodiy o'sishini moliyalashtirish orqali boshqa markazlarga ham o'rgatib borishimiz kerak. Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omillarini o'rganar ekanmiz bu yo'lda aniq maqsad qo'yib, ko'proq intilishimiz va sohaga islohot olib

kirishga qo'rqmasligimiz, jahon va milliy bozoriga madaniy xizmat ko'rsatish tizimi sifatiga qayta tanqidiy qarab chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmo'minov M., Maratova N. *Madaniyat va san'at sohasida loyihalarga mablag' jalb etish masalalari*//*Oriental Art and Culture*. – 2022. – № 3.3. – B. 114–118.
2. Haydarov A. *Madaniyat – milliy yuksalish poydevori*. – Toshkent: Oltin meros press, 2021. – 478-b.
3. Xolmo'minov M., Xushvoqov A. *Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish*//*Oriental Art and Culture*. – 2022. – № 3.1. – B. 89–95.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat markazlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 264-son qarori, 2019-yil 30-mart, www.lex.uz.
5. Xolmo'minov M., Xushvoqov A. *Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omillari*//*Oriental Art and Culture*. – 2022. – № 3.1 – B. 164–171.
6. To'g'onboyeva Z., Xolmo'minov M. *Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda xorij tajribasi*//*Oriental Art and Culture*. – 2022. – №3.4. – B. 650–654.
7. Fayziyev T., Xolmo'minov M. *Madaniyat va san'at sohasi menejmentida loyihalar faoliyati*//*Oriental Art and Culture*. – 2022. – № 3.2. – B.41–49.